JURNALISTIKA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING CHET TILIDAGI KASBIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA KOMPETENSIYAGA ASOSLANGAN YONDASHUV

Giyasova Azizaxon Muratovna
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Mustaqil izlanuvchisi
E-mail:azizakhongiyasova@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.24320272

Annotatsiya: O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida jurnalistika yo'nalishidagi talabalarga ingliz tilini o'qitish ularda nafaqat kasbiy faoliyat, balki global miqyosda raqobatbardosh bo'lish uchun zarur ko'nikmalarni shakllantiradi. Jurnalistika sohasida ingliz tilini bilish talabalarga yangi axborotni qabul qilish, xalqaro jurnalistika tajribasidan foydalanish va global auditoriyaga xizmat qilish imkonini beradi . Shu sababli ta'lim jarayoniga yangi, innovatsion va interfaol metodlarni joriy etish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Maqolada jurnalistika ta'lim yo'nalishi talabalarining chet tilidagi kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda kompetensiyaga asoslangan yondashuvning nazariy asoslari, tarkibiy moduli va amaliy mexanizmlari yoritilgan. Tadqiqot g'oyasiga ko'ra, chet tili darsi faqat grammatik bilim va lug'at boyligini shakllantirish bilan cheklanmasdan, talabaning xalqaro axborot muhitida axborot izlash, manba bilan muloqot qilish, reportaj yozish, tarjima qilish va axborotni axloqiy me'yorlarda taqdim etish qobiliyatini rivojlantirishi lozimligi ta'kidlab o'tilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiyaga asoslangan yondashuv, jurnalistika ta'limi, chet tili, kasbiy kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, loyihaviy o'qitish, professional til ta'limi.

Kirish

Global axborot makonining kengayishi, xalqaro media hamkorligining kuchayishi va raqamli kommunikatsiya vositalarining rivoji jurnalist mutaxassislaridan faqat milliy tilni emas, balki chet tilida samarali ishlash qobiliyatini ham talab qilmoqda. Bugungi kunda jurnalist chet tilidagi manbalarni tanqidiy o'qishi, xorijiy ekspert bilan suhbat o'tkazishi, xalqaro tadbir haqida xabar tayyorlashi, matnni ma'no va kontekst asosida tarjima qilishi hamda o'z materialini auditoriyaga tushunarli shaklda taqdim etishi kerak. Shunday ekan, zamonaviy usul va yondashuvlarning chet tillarini o'qitishdagi ahamiyati ko'p qirrali: jadal o'zgarib borayotgan global dunyoda til o'qitish va o'rganish usullari ham muntazam yangilanib, rivojlanib borishi zarur, deb hisoblaymiz. Til o'qitish usul va yondashuvlari takomillashib borayotganiga qaramay, o'tmishdagi va hozirgi o'qitish usullarini o'rganish o'qituvchilar tayyorlash dasturlarining muhim qismi bo'lib qolmoqda. J.Richards va T.Rodjers buning sabablarini quyidagicha izohlaydi: "1. Usul va yondashuvlarni qanday o'qitish kerakligi haqidagi ko'rsatma sifatida emas, balki o'qituvchilar o'z ehtiyojlariga ko'ra moslashtirishi yoki qo'llashi mumkin bo'lgan, amalda sinalgan tajriba manbai sifatida o'rganish mumkin. 2. Turli o'qitish usul va yondashuvlaridan foydalanish tajribasi o'qituvchilarga asosiy o'qitish ko'nikmalarini beradi; ular keyinchalik o'qitish tajribasi ortgani sari bu ko'nikmalarni to'ldirib boradi" .

Zamonaviy metodikada bu usullar ichida kommunikativ yondashuv yetakchi o'rin egallaydi, uning markaziy tushunchasi esa kommunikativ kompetensiyadir. Pedagogik adabiyotlarda kompetensiya bilim,

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

ko‘nikma, munosabat va qadriyatlarning amaliy faoliyatni bajarishga xizmat qiluvchi yaxlit majmuyi sifatida tushuniladi.

Kommunikativ kompetensiya nafaqat til va uning grammatik qoidalarini bilishni, balki muloqotni muayyan maqsad va ehtiyojlarga moslashtira olishni ham o‘z ichiga oladi . Bu qobiliyat vaziyat, auditoriya va muloqot maqsadini hisobga olgan holda tegishli muloqot strategiyalarini tanlashni nazarda tutadi . M.Kanale kommunikativ kompetensiya tarkibida to‘rt komponentni ajratadi: grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik kompetensiya. Keyinroq L.Baxman bu modelni “kommunikativ til qobiliyati” (communicative language ability) konsepsiyasi shaklida kengaytirib, unga til bilimi bilan bir qatorda strategik kompetensiya va psixofiziologik mexanizmlarni kiritdi . CEFR esa kommunikativ til kompetensiyasini lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik komponentlar majmui sifatida tavsiflaydi. Jurnalistika ta’limida chet tilini o‘rgatishning maqsadi shakllantirilgan umumiy til darajasi emas, balki talabaning kasbiy faoliyatida tilni mustaqil, ma’suliyatli va axloqiy asoslarda qo‘llash qobiliyatidir. Shu nuqtai nazardan maqolaning maqsadi jurnalistika talabalarining chet tilidagi kasbiy kompetensiyasini shakllantirish uchun kompetensiyaga asoslangan didaktik modelni taklif qilishdan iborat. **Adabiyotlar tahlili**

“Kompetensiya” tushunchasi ilmiy muomalaga XX asrning ikkinchi yarmida kirdi. N.Xomskiy 1965-yilda til qobiliyati (competence) va undan foydalanish (performance) tushunchalarini farqlagan bo‘lsa, D.Xayms unga javoban **“kommunikativ kompetensiya”** atamasini taklif qildi. Psixologiyada esa D.Makklelland 1973-yilda kasbiy muvaffaqiyatni intellekt testlari bilan emas, balki kompetensiyalar orqali baholash g‘oyasini ilgari surdi . Shu tariqa kompetensiyaviy yondashuv lingvistika, psixologiya va pedagogika kesishmasida shakllandi.

Etimologik jihatdan **“kompetensiya”** atamasi lotincha competere **(“mos kelmoq, munosib bo‘lmoq”; so‘zma-so‘z: com — “birga” va petere — “intilmoq”)** fe’lidan kelib chiqqan. Undan competentia **(“muvofiqlik, moslik”)** va competens **(“munosib, qodir, vakolatli”)** so‘zlari yasalgan. Shu sababli **“kompetent”** so‘zi odatda ikki ma’noda qo‘llanadi: 1) vakolatga ega; 2) muayyan faoliyat sohasida bilimdon. **“Kompetensiya”** va **“kompetentlik”** tushunchalari ba’zi hollarda sinonim sifatida ishlatilsa, boshqa hollarda farqlanadi.

Pedagogik adabiyotlarda bu tushunchalarni farqlash tendensiyasi yaqqol ko‘rinadi, garchi buning asoslari turlicha bo‘lsa ham. Nazariyotchilar va amaliyotchilar orasida A.V.Xutorskoyning qarashi eng keng e’tirof etilgan. Olimning fikricha, ta’limiy kompetensiya — talabaning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega samarali faoliyatni amalga oshirishi uchun zarur bo‘lgan, voqelikning muayyan obyektlariga nisbatan o‘zaro bog‘liq ma’naviy yo‘nalishlar, bilimlar, malakalar, ko‘nikmalar va faoliyat tajribasi majmui bilan ifodalangan, ta’limiy tayyorgarlikka qo‘yiladigan oldindan belgilangan ijtimoiy talab (norma). Kompetentlik esa tegishli kompetensiyani egallaganlik, jumladan, unga va faoliyat predmetiga nisbatan shaxsiy munosabatga ega bo‘lishdir . Boshqacha aytganda, kompetensiya — ta’lim oldiga qo‘yilgan talab, kompetentlik esa shu talabning shaxsda amalga oshgan natijasidir.

Kasbiy chet til ta’limi bo‘yicha tadqiqotlar jurnalistika talabalari uchun til darsini kasbiy faoliyat modellariga asoslash zarurligini ko‘rsatadi. Xususan, kasbiy yo‘naltirilgan lingvokommunikativ mashqlar, real kasbiy vaziyatlarni modellashtirish va loyihaviy o‘qitish kompetensiyalarni shakllantirishning samarali vositalari sifatida qaraladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Kasbiy-kommunikativ kompetensiyani universitet talabalarini o‘qitishning aniq maqsadi sifatida talqin qiluvchi olimlarning asarlarida ko‘pincha bu tushunchaning ta’rifi berilmaydi; uning mohiyati

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

o‘qitish maqsadlari ro‘yxati orqali ochib beriladi. L.R.Xasanova bo‘lajak ijtimoiy xodimlarni tayyorlashda kasbiy-kommunikativ kompetensiya haqida so‘z yuritar ekan, shunday yozadi: “Kasbiy tayyorgarlik kelajakdagi mutaxassis shaxsi modeliga yo‘naltirilishi, uning faoliyati tuzilishini aks ettirishi kerak, o‘qitish jarayonining o‘zi esa kelajakdagi kasbiy faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettirishi lozim”.

L.S.Zaykina kasbiy-kommunikativ kompetensiya tizimidagi tarkibiy va funksional komponentlarni ajratadi. Tarkibiy komponentlarga quyidagilar kiradi:

– kasbiy refleksiya — kasb, kasbiy ahamiyatga ega vaziyatlar va fazilatlar haqidagi tasavvurlar tizimini shakllantirish;

– madaniyatlararo idrok — subyektlarning turli madaniyatlar darajasida bir-birini idrok etishi;

– ijtimoiy idrok — subyektlarning bir-birini va ulardan keladigan axborotni dinamik jarayon sifatida idrok etishi; bunda idrok etuvchining tajribasi va munosabati orqali idrok etilayotgan obyekt haqida tasavvur shakllanadi, xulq-atvor xususiyatlari baholanadi va o‘zgartiriladi.

Jurnalistika talabalarini kasbiy ingliz tilini kompetensiyaga asoslanib o‘qitishda quyidagi tamoyillarga tayaniladi:

- Kontekstlilik: til materiali real jurnalistik vaziyatga bog‘lanadi;
- Faollik: talaba tinglovchi emas, axborot ishlab chiqaruvchi subyekt sifatida ishtirok etadi;
- Vazifalilik: har bir topshiriq aniq kasbiy natijaga yo‘naltiriladi;
- Hamkorlik: guruhli ish, peer-review va mentorlik qo‘llanadi;
- Tanqidiylik: manbalar ishonchliligi, faktlarning aniqligi va axloqiy me’yorlar tahlil qilinadi; - Reflektivlik: talaba o‘z nutqini, yozgan matnini va qabul qilingan qarorlarini tahlil qiladi.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv talabada yagona til ko‘nikmasini emas, yaxlit kasbiy kommunikatsiya tizimini shakllantiradi. Jurnalistika talabasi chet tilida matn o‘qish bilan birga uni tanqidiy tahlil qilishi, manba aniqligi va axborot etikasini baholashi lozim.

Tahlil va natijalar

Kasbiy chet til kompetensiyasini baholashda quyidagi mezonlar taklif etiladi:

Mezon	1 ball	3 ball	5 ball
Lingvistik aniqlik	Asosiy grammatik va leksik xatolar ko‘p	Ba’zi xatolar mavjud, mazmun tushunarli	Til vositalari deyarli aniq qo‘llanadi
Kasbiy leksika	Kasbiy atamalar yetarli emas	Asosiy atamalar qo‘llanadi	Soha terminologiyasi erkin va to‘g‘ri qo‘llanadi
Diskursiv tuzilma	Matn tartibsiz, mantiqiy bog‘lanish kuchsiz	Asosiy qismlar mavjud	Matn mantiqiy, aniq va jurnalistik janrga mos
Kommunikativ maqsad	Maqsad aniq emas	Maqsad qisman erishiladi	Auditoriya va vazifaga mos samarali muloqot
Tanqidiy tahlil	Manbalar tanqidsiz qabul qilinadi	Ba’zi manbalar solishtiriladi	Manbalar ishonchliligi va konteksti chuqur tahlil qilinadi

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Kasbiy axloq	Manba va fa talablariga e'tibor past	Qisman e'tibor beriladi	Aniqlik, va adolat manba hurmati yuqori

Bu mezonlar talabaning faqat til darajasini emas, kasbiy qaror qabul qilish va axloqiy mas'uliyatini ham o'lchaydi. Shu bois ular jurnalistika yo'nalishining kasbiy ta'lim standartlari bilan uyg'unlashadi.

Xulosa

Jurnalistika ta'lim yo'nalishi talabalarining chet tilidagi kasbiy kompetensiyasi lingvistik bilim, kommunikativ ko'nikma, kasbiy diskurs, mediasiya va axloqiy mas'uliyatning yaxlit majmuyidir. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv bu kompetensiyalarni shakllantirish uchun eng maqbul didaktik asos bo'lib xizmat qiladi, chunki u talabani real kasbiy vaziyatlarda faol ishlashga yo'naltiradi.

Egallayotgan mutaxassisligi bo'yicha chuqur bilimlarga asoslanganlik — faoliyatning muayyan sohasida aniq vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish va maqsadlarga erishish imkonini beruvchi bilim, ko'nikma, malaka, tajriba va shaxsiy xislatlar yig'indisi bo'lib, u nafaqat nazariy bilimlarni, balki ularni amalda samarali qo'llash hamda turli va o'zgaruvchan sharoitlarga moslasha olish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Zero, hozirgi zamon ta'limi va kasbiy faoliyatida chuqur bilimlar keng ko'lamdagi sohalarda muammolarni samarali hal etish va muvaffaqiyat qozonish imkonini beradi.

Ma'lumki, bo'lajak mutaxassisning kasbiy kompetensiya darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, u o'z kasbiy faoliyati sohasida shunchalik talabgir bo'ladi. "Ammo insonning kasbiy faoliyati natijadorligida kasbga oid bilimlarga ega bo'lish bilan bir qatorda uning kommunikativ kompetensiyasi, ya'ni berilgan kontekstda samarali muloqotni ta'minlashga mo'ljallangan bilim va qobiliyatlar yig'indisi ham muhim rol o'ynaydi" .

Bo'lajak jurnalistlarni tayyorlash jarayonida asosiy urg'u nafaqat kasbiy kompetensiyani, balki lingvistik va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga ham qaratilishi lozim. Til jurnalist faoliyatining asosiy quroli bo'lib, til tizimini chuqur egallamay turib jurnalistikada muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. Ingliz tili jahonda xalqaro muloqotning yetakchi tili bo'lib, bo'lajak jurnalistlar uchun nafaqat muloqot vositasi, balki asosiy kasbiy ko'nikma hamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **1.**https://journal.phnoe.ac.at/index.php/resource/article/download/1395/1364/4994)
2. 2.Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. – 2-е изд. – М.: Просвещение, 1991. – С. 22.
3. 3.135. Миролюбов А.А. История отечественной методики обучения иностранным языкам. – М.: Ступени; ИНФРА-М, 2002. – С. 42. [Nashr yili tekshirilsin.]
4. 4. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment – Companion Volume. Council of Europe, 2020. (https://rm.coe.int/cefr-companionvolume-with-new-descriptors-2020/16809ea0d4)
5. 5.Council of Europe. CEFR and profiles: levels of proficiency. (https://www.coe.int/en/web/langmigrants/cefr-and-profiles)
6. 6. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Introduction and context. (https://www.coe.int/en/web/common-european-framework-referencelanguages/introduction-and-context)

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

7. 8. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages. (https://rm.coe.int/16802fc1bf/lang-CEFR)

8. 9. Competence-based approach to teaching professional foreign language to master's degree seekers: A case study of English-for-Journalism course. Philology Journal, 2019. (https://philologyjournal.ru/en/article/phil20190486/fulltext)

9. 6. Journalists' professionalism as the object of foreignlanguage teaching. European Proceedings,2019.(https://www.europeanproceedings.com/article/10.15405/epsbs.2019.08.02.58)

10. 7. Integrating language skills into journalism practice for higher education. (https://ojs.ukscip.com/index.php/dtra/article/download/1970/1164/10382)

11. 8. The importance of a competency approach to teaching foreign languages to journalism students. (https://philmatt.uzswlu.uz/article/download/366)

12. 9. Обучение будущих журналистов иноязычным дискурсивным практикам. Непрерывное образование: XXI век, 2025. (https://lll21.petrsu.ru/journal/article.php?id=10044)

13. 10. British Council Uzbekistan. ESP Curriculum. (https://www.britishcouncil.uz/sites/default/files/esp_curriculum_engl.pdf)

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.